

Sharqshunoslik instituti asosiy fondi qo'lyozmalarining elektron katalogi ishga tushirildi


Germaniyaning Gerda Xenkel fondi homiyligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi qo'lyozmalarining elektron katalogi yaratildi va ishga tushirildi. 27-may kuni shunga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Al-Biruni Institute of Oriental Studies

The Al-Beruni Institute of Oriental Studies of Uzbekistan of Academy of Sciences has a collection of oriental manuscripts which can well match with any treasury of its kind of the world both in its scientific value and wealth. Primarily, with the aim of comprehensive study of rich collections of manuscripts the Institute on the Study of Oriental Manuscripts under the Uzbekistan Academy of Sciences was established in 1943. All manuscript copies kept in the Eastern Department of the State Public Library of the Uzbek SSR were turned over to the newly organized Institute.

At first, the Institute had only one section – on the Study of oriental Manuscripts. However, with the expansion of the Institute's researches also grew the number of these sections, including sessions on primary processing and classification, scientific description and cataloguing, research and publication of manuscript and publication of manuscript and documents, as well as the section on studying of political, economic and cultural life of neighboring foreign states and their relations with Central Asia. The Institute itself changed its name. Now it is known as the Abu Raikhan Beruni Institute of Oriental Studies of Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

At present the depository of the Institute of Oriental Studies contains over 25 000 volumes of manuscripts. Many of these are collections with several works bound into one volume. These works were written in Uzbek, Arabic, Persian, Tajik, Urdu, Pushtu, Azerbaijanian, Turkish, Tatar, Turkmenian, Uighur and other languages of the Eastern peoples. They cover a wide range of subjects: history, history of literature, philosophy, law, astronomy, physics, chemistry, medicine, languages, pharmacology, geography, music, mathematics, mineralogy, rural economy, fine arts, etc. These are all





Ushbu katalog bir necha yildirki, Institutda katalogizatorlar tomonidan sinovdan o'tkazilmoqda. Shuningdek, Institutga tashrif buyurgan mahalliy va xorijlik tadqiqotchilar bu katalogdan foydalanish imkoniyatiga ega uning ham ilmiylik va qulaylik jihatlarini qayd etadilar.

Elektron katalog Institut Asosiy fondidagi barcha qo'lyozmalarning 25 000 dan ortiq tavsiflarini o'z ichiga olgan. Katalogning programmasida istalgan asarni uning nomi yoki muallifining ismini terish bilan soniyalar ichida topish mumkin. Bundan tashqari, Elektron katalog asarlar nusxalarini solishtirish va o'rganish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Katalog va aynan loyiha doirasida ishlab chiqilgan uning programmasiga ham mahalliy hamda qo'shni davlatlar ilmiy muassasa va kutuxonalari qiziqish bildirmoqdalar. Masalan, hozirda Institut beg'araz yordam sifatida boshqa muassasalarga mazkur programmani taqdim etib kelmoqda. Hozirgi kunda Samarqanddagi Imom Buxoriy ilmiy markazi, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Xorijdagi O'zbekistonga oid madaniy boyliklar boshqarmasi kabi muassasalar qo'lyozmalar va boshqa artefaktlar tavsiflarini ushbu elektron katalog programmasi bazasida kiritib boshlaganlar.

Yaratilgan Elektron katalog Davlatimiz Rahbari tomonidan imzolangan yozma merosni asrash, o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan qator qarorlar bilan to'la hamohang bo'lib, kelgusida O'zbekistondagi boshqa yozma manbalar xazinalari uchun ham bir etalon bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Umid qilamizki, bugun ilm ummoniga suzishga qo'yib yuborilayotgan Elektron katalog jahon ilmiga munosib xizmat qiladi.